
YUZAGA KELGAN NOSOZLIKLAR BARTARAF ETILDI



Kechagi yog'ingarchilik va qorga aylangan yomg'ir ko'p qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, elektr energiyasi ta'minoti sohasida. Ba'zi bir mahallalarda "svet"ning o'chishi ko'p murojaat va noroziliklarga sabab bo'ldi.

Ko'rib turganingizdek, tuman ETK ishchi-xodimlari sutkaning qaysi vaqtida bo'lmasin, elektr ta'minotini bir maromda bo'lishiga harakat qilishmoqda. Yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etishda mas'uliyat bilan yondoshgan tuman elektr tarmoqlari korxonasi rahbari Sherzodjon Rahimov va korxonaning fidoiy montyorlariga minnatdorchilik bildiramiz.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-10-20 17:21:54